O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

# BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

## XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

# MATERIALLARI



Pedagogik texnologiya o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta’lim shakllarini amalga oshirish uchun ko‘zlangan natijaga erishishda eng qulay yo‘l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyada ta’lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo‘lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Har bir o‘qituvchi avvalo o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmeti va har bir o‘tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta’kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o‘tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o‘tishida motivlar muhim o‘rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo‘ladi.

Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da’vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o‘qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o‘stirishlari kerak. Motivlar o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Ayniqsa boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o‘quvchilarni darsga jalb etish samarali bo‘ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to‘liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o‘quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e’tibor qaratishlari zarur.

Masalan, «Davom ettir» o‘yini: o‘qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o‘quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o‘quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o‘yini: matndagi bir necha so‘zlar vositasida bu o‘yinni o‘ynash mumkin. O‘qituvchi boshlab bir so‘z aytadi, so‘zning tugagan harfidan boshlanadigan so‘zni bir o‘quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o‘quvchilarni o‘yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: o‘qituvchi yoki boshlovchi o‘quvchilar qatori oralab yurib, o‘quvchilardan birini turg‘izadi va biror tur nomini aytadi. O‘quvchi shu turga kimvchi so‘z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. O‘yin toki bir o‘quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o‘yin davomida o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o‘rganadi, atrofdagi sodir bo‘ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o‘yindan dars davomida o‘tilgan mavzuga bog‘lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O‘qituvchi: «Hayvon».

O‘quvchi: «It».

O‘qituvchi: «O‘quv quroli».

O‘quvchi: «Daftar».

O‘qituvchi: «Sinf jihozi».

O‘quvchi: «Xontaxta».

O‘qituvchi: «Ertaklar».

O‘quvchi: «Zumrad va Qimmat» va hakozo.

Shu kabi o‘yinlardan foydalanish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojolantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatadi, o‘quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko‘rsatadi.

O‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o‘laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish va ta'lim jarayonida qo‘llash zamon talabidir. Dars jarayonida yangicha muhitni shakllantirish, zamonaviy ko‘rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta’sirchan bo‘lganliklari uchun ham o‘qituvchidan o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lgan, darsni oson o‘zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o‘rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2008-yil.

2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. - T., 2003-yil
4. Azizxo‘jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil.
5. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. -T., 2001-yil.
6. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T. 2000-yil.

## BUXOROGA BOSMAXONALARNING KIRIB KELISHI ONA TILI ADABIYOTIMIZNI TEXNOLOGIK RIVOJLANISH OMILI

**A. E. Ashurova,**
***Peshko‘ tumani 4-son IDUM o‘qituvchisi***
**E. D. Davlatovna**
***BuxDU, 1-bosqich doktoranti***

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixidan ma’lumki, bosmaxonalar paydo bo‘lguniga qadar kitoblar qo‘lda ya’ni xattotlar tomonidan yozilgan. Bitta kitobni yaratish uchun uzoq muddat talab qilinib, unga xattotdan tashqari muqovasoz, sahhof, lavvoh, charmsoz kabi ko‘plab mutaxassislarning mehnati singgan. Tosh bosmaxonalar vujudga kelishi bilan kitob bosma holatda nashr etilib, varaqa, plakat, taklifnoma kabilar ham shu bosmaxonalarda bosilgan. Tarixiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tosh bosmaxonalar Sharq mamlakatlaridan Turkiya (Usmoniylar saltanati ), Eron va Misrga nisbatan ilgari paydo bo‘lib, Turkistonga ulardan 50 yillar keyin kirib kelgan. Xiva xonligiga litografiya (toshbosmaxona) 1874-yilda Erondan kirib kelgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz (1864-1910-yy) toshbosmaxonani Erondan sotib olgan va xonlikda minglab kitoblar chop etilishiga imkon yaratgan.[3] Tadqiqotchi M.Z.Orziyevning yozishicha, Buxoro amirligida birinchi xususiy toshbosmaxonalar 1884-1886-yillarda tashkil etilib, mullo Muxsin, Mulla Ahmad, Hoji Azimboy kabi savdogar va sayyohlar tomonidan toshbosma Buxoroga keltirilgan. Keyinchalik, 1894-yilda Yangi Buxoro (Kogon)da Levin bosmaxonasi ochilgan bo‘lsa, 1901-yilda Obidjon Mahmudov bosmaxonasi mavjud bo‘lgan.[4] Buxoro amirligida birinchi hukumat bosmaxonasi 1917-yil apreldagi amir manifestidan keyin ochilib, qisqa muddat ya’ni 1917-yil bahoridan 1918-yil mart oyi davomida (Kolesov voqeasi)ga qadar mavjud bo‘lgan. Amirlik eski bog‘i o‘rnida mavjud bo‘lgan ushbu bosmaxona 1920-yil kuziga qadar xaroba holatda bo‘lib, BXSR hukumati uni ishga tushirish, zamonaviy texnika vositalari va mutaxassislar bilan ta’minlash choralarini ko‘rgan.

Bosmaxonani ishga tushirish uchun avvalo, unga harf teruvchi mutaxassislar, injener – texnik va slesarlar, tegishli asbob - uskunalar mavjud emasdi. Shu sababli hukumat 1921-yilning kuz oylarida “Markaz”dan Turkistonga kelgan “Qizil Sharq” targ‘ibot poyezdida “Qizil Sharq” gazetasi kotibi va poyezdning harbiy bo‘lim yo‘riqchisi M.K. Budailov, Habibullinlar zimmasiga Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishlarini yo‘lga qo‘yish vazifasini yuklagan. Tataristonning Magadshi uyezdidan bo‘lgan, tatar tilidan tashqari o‘zbek, arab, rus, qirg‘iz tillarini ham yaxshigina egallagan M.K.Budailov 1-Qozon harf teruvchilar va bosmaxona xodimlari tayyorlash maktabini bitirgan edi. U o‘z holiga tashlab qo‘yilgan Buxoro amirligi bosmaxonasini asbob – uskunalar bilan ta’minlash, musulmon shrifti va harf teruvchilar; jurnalistlar olib kelishda jonbozlik ko‘rsatdi. M.K.Budailov Buxoroda BXSRning birinchi davlat nashriyoti direktori bo‘lib ishladi.[5]

Ikkinchi turdagi dinam 20 ot kuchiga ega bo‘lib, 174 amper, bir daqiqada 1320 oborotga ega ekanligi, shkivining uzunligi 400 mm, eni 200 mm ekanligi, narxi esa birinchisidan bir qadar arzon bo‘lib, 4.500 rublni tashkil etishi ham ko‘rsatilgan[6]. Ushbu dinamlarning 50 foiz narxi oldindan to‘lanib, qolgani hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida “ Rus – Osiyo banki” orqali pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanishiga

---

[3] Ernazarov.F.A. XIX- asr oxiri – XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. ilm. dar. olish uchun dis.avtoreferati. –Toshkent- 2005. –B .16.
[4] Orziyev M. Z. XIX- asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishi. Tarix fanlari b o‘yicha falsafa doktori ( PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand- 2020. – B. 12-13.
[5] Qarang. Rasulov A. Turkiston va Volgab o‘yi, Uraloldi xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar. – T. “ Universitet,” 2005. – B.- 188- 189- 190-191.
[6] O‘zbekiston Milliy Arxivi ( O‘MA) I- 3-fond, 2-r o‘yxat, 722-yi g‘ma jild, 4-varaq, 4-varaqning orqa tomoni, 5,6,7-varaqlar.

корхонасининг фондидан ноқонуний равишда олинган бензинни ишлатиб юбориш). Айбдорнинг бундай ҳаракатлари, зарурий бел- гилар мавжуд бўлганда, талон-торож қилишни ташкил этиши мумкин. Анча микдордаги зарар деганда, энг кам ойлик иш ҳақининг ўттиз бараваридан юз бараваригача бўлган микдордаги зарар тушу- нилади (Жиноят кодексининг «Махсус» қисми, VIII бўлимига қаранг). Зарар микдори етказилган моддий зарарнинг фактик ҳолатидан келиб чиқиб белгиланиши лозим. Агар шахс томонидан ҳаракат содир этилиши натижасида фактик жиҳатдан белгилангандан кам микдорда зарар етказилган бўлса, бироқ, айбдорнинг нияти анча микдорда зарар етказилишига қаратилган бўлса, қилмиш айбдорнинг ниятига қараб мулкни қасдцан нобуд қилиш ёки зарар етказишга суцқасд қилиш сифатида квалификация қилиниши лозим. Агар мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказиш натижасида ушбу жиноят таркибини қамраб олмайдиган оқибатлар келиб чиқса (масалан, жабрланувчига тан жароқати етказилса), қилмиш жиноятлар жами бўйича квалификация қилиниши керак. Айбдор ўзига тегишли бўлмаган мулкни нобуд қилиш ёки зарар етказиш ҳуқуққа хилофлигини англаб етади ва мулкдорга ёки мулкнинг бошқа эгасига анча миқдорда зарар етказилиши мумкинлигини кўра билади ва шу билан бирга бундай оқибат келиб чиқишини хоҳлайди ёки бунта онгли равишда йўл қўяди ёхуд улар келиб чиқишига нисбатан бепарво бўлади. Мазкур жиноят мақсади (тўғри қасддан) ва мотивининг мазмуни ғаразли ҳисобланмайди ҳамда қилмишни бошқа турдаги жиноятга (масалан, қўпорувчиликка) айлантирадиганларидан ташқари ҳар қандайи (безорилик, ўч олиш, ҳасад, рашк ва ҳоказо) бўлиши мумкин. Агар шахс мулкни қасддан нобуд қилиш ёки унга зарар етказишни миллатлараро ёки ирқий адоват мотивлари бўйича содир этган бўлса ёки мулкка зарар етказиш айбдорнинг мулк те- гишли бўлган ўзга шахс ёхуд улардан бири муайян бир ирққа, миллатга ёки халққа тегишлилиги тўғрисида субъектив тасаввури асосида содир этилса, мулкни нобуд қилиш сифатида қаралиши лозим. Айнан шахснинг кўрсатилган гуруҳга тегишлилиги ва анъ- аналарни амалга ошириши мулкнинг нобуд қилиниши ва унга зарар етказилишининг асосий сабаби ҳисобланади.

## МУНДАРИЖА

Обиджон Хамидов. Рақамли технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишнинг устувор вазифалари ... 3
Отабек Қаххоров. Рақамли иқтисодиёт тараққиёт омили сифатида ... 4
Қахрамон Тўхсанов. Таълим беришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти ... 5

**I ШЎЪБА. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ ... 8**
Б.Адизов. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари ... 8
Ш. Ш. Олимов. Бошланғич таълимни табақалаштиришнинг муҳим омиллари ... 11
А.Р. Ҳамроев. Масофавий таълим соҳасида рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари 15
Чемезов Сергей Александрович, Сахновская Елена Геннадьевна, Алмазова Юлдуз Исматовна. Цифровые ресурсы для педагогов начальной школы ... 17
З.Л.Умуров. Таълимни рақамлаштириш шароитида педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш педагогикаси фани асослари ... 19
U.A. Masharipova. Boshlang‘ich ta’limga raqamli ta’lim texnologiyalarni joriy etish davr talabi ... 22
G‘.M.Sayfullayev, L.X.Alimova, I.S. Temirova, S.Sh. Namozova. 4-sinfrda markaziy osiyolik allomalarning tabiat ... 24
Умуров Зариф Латифбоевич. Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари ... 26
G‘.M. Sayfullaev, G.F.Yodgorova, F.O‘. Yodgorov. Boshlang‘ich sinf “atrofimizdagi olam” darslarida o‘qitishning raqamli texnologiyalaridan foydalanish ... 28
G‘.M. Sayfullayev, L.X.Alimova, D.O.Hamroyeva. Tabiatshunoslikni o‘qitishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalar ... 30
m.m.nigmatova. raqamli o‘yinlar bolalarni o‘qitish usuli sifatida ... 32
M. J. Yarashov, X. I. Hamdamova. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning o‘rni ... 34
M. J. Yarashov, F. B. Barotova. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiq etish metodikasi ... 36
M.J.Yarashov, M.T.Axmedova. BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA TA’LIMNI Raqamli texnologiyalar orqali ijodiy tashkil etish jarayoni ... 38

**II ШЎЪБА. БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШНИНГ ХАЛҚАРО ТИЗИМИ ... 40**
М. М. Юлдашева, Бафаева Дилдора. Обучение учащихся анализу художественных произведений в начальных классах на основе заданий PIRLS ... 40
B.T.Jurayev, Z.Qamarova. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash tamoyillari ... 43
Doniyorova Nodira, Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich. Husnixat darslarida xalqaro tadqiqot baholash tizimi-pirls matnlarini qo‘llashning ahamiyati ... 45
Б. Мустафоев. Бошланғич синф ўқувчиларида мусиқий саводхонликни шакллантириш жараёнида мантиқий фикрлаш ва баҳолашга ўргатиш ... 47

**III ШЎЪБА. ДАРСЛИКЛАРНИ ЯРАТИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ҚИЛИШ ... 49**
Мишанова А. И. ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ ... 49
R. X. Jumayev. BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLIKLARINING AFZALLIKLARI ... 50
O‘. M. Olloqova. ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI ... 53
R. X. Jumayev, Sh.T.Elmurodova. ONA TILI DARSLIKLARIDAGI DIDAKTIK MATERIALLARNI YARATISH VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH ... 55
M.M.Qosimova, F.F.Qosimov. TAQQOSLASHGA DOIR TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI ... 58
М.А. Жумаева. ПЕДАГОГИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚИТУВЧИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ... 60

N.B.Adizova, H.Xudoyberdiyeva. O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI ........ 62
A. E. Ashurova, E. D. Davlatovna. BUXOROGA BOSMAXONALARNING KIRIB KELISHI ONA TILI ADABIYOTIMIZNI TEXNOLOGIK RIVOJLANISH OMILI ........ 64
F. M. Qosimov, M. F. Ibrohimova. BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLARNI QO‘LLASHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI ........ 66
U.Sh. Tog‘ayeva, G.N. Roziqova. BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ........ 67
F. N. Abdullayeva. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI ........ 69
Sh.Y. Yusufzoda, X.Y. Yusufzoda. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ........ 71

**IV ШЎЪБА. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШНИНГ МЕТОДИК ИМКОНИЯТЛАРИ ........ 74**

Сахновская Елена Геннадьевна. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ КОНВЕРГЕНТНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ........ 74
Hamroyev A. R., Hasanova M. A., Toyirova N. M. BIRINCHI SINF O‘QUVCHILARIDA YOZUV QUROLLARIDAN FOYDALANIB, CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI ........ 77
Яценко Владимир Сергеевич. ГЕОГРАФИЯ КУЛЬТУРЫ ИГРУШКИ КАК ВАЖНЫЙ ПРАКТИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ........ 78
Ш.Бабаева. МОДЕЛИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПОМОЩИ ПРОЕКТИРОВАНОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ........ 81
Б.С.Жамилова. БОЛАЛАР КИТОБХОНЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ........ 83
Д. Ш.Джураева. МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ РЕШИНИЯ ЗАДАЧ ........ 86
Узакова А.Б., Рохатова З.И., Алимова А.Н., Фазилова Н.С., Бабаева Ш.Б. СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ И МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНИКОВ ........ 90
G. M. So‘fiboyeva. KICHIK YOSHLI BOLALARDA GEOMETRIK FAZOVIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USLUBI ........ 92
Sh.U.Sariyev. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA O‘QISH VA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI ........ 95
G.T.Cho‘lliyeva, K.Q.Siddiqova. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ........ 96
M. J. Saidova. TA’LIMDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI ........ 98
G. E. Saidova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI. ........ 101
M. J. Saidova. MASOFAVIY TA’LIMDA O‘QITISH IMKONIYATLARI VA USULLARI ........ 102
G. E.Saidova, A. Sh. Qoryog‘diyeva. BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MANTIQIY MASALALAR YECHISHNI O‘RGATISH ........ 105
O‘. Olloqova, G. Murodova. MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK FIGURALARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH ........ 106
M. R. Hamroyeva, F.N. G‘afurova. BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH ........ 109
G. E. Saidova, S. F. Sanoqulova. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA UZUNLIK HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANRITISH, UZUNLIKLARNI O‘LCHASH MALAKALARNI HOSIL QILISH ........ 112
M. H. Ozodova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI EGALLASH BOSQICHLARI ........ 114
F.M. Qosimov. IJODIY TOPSHIRIQLAR VA ULAR TIZIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR ........ 116
N.Adizova, D. Husenova. SINFDA UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI USTIDA ISHLASH ........ 118